

XORAZM QAL`ALARINING O`RGANILISHI VA ULARNING VAZIFALARI

Yusupov Ibratbek

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimiy tarixiga ega bo`lgan Xorazm vohasining ulkan tarixni o`zida aks erttirgan qal`alarining o`rganilishi,xususiyatlari,vazifalari va farqli jihatlari haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: Yodgorlik, Arxealo`giya, Ekspeditsiya, Qal`a, Minora, Tolstov, Qo`yqirilgan qal`a, Tuproqqaq`a, Tadqiqot, Oqshahonqal`a, Qalajiq.

Аннотация: В данной статье говорится об исследовании, характеристиках, функциях и различных аспектах крепостей Хорезмского оазиса, имеющих древнюю историю и отражающих великую историю.

Ключевые слова: Памятник, Археология, Экспедиция, Замок, Башня, Толстов, Названный Замок, Земляной Замок, Исследования, Акшаканкала, Каладжик.

Abstract: This article talks about the research, characteristics, functions and different aspects of the fortresses of the Khorezm oasis, which has an ancient history and reflects the great history.

Key words: Monument, Archeology, Expedition, Castle, Tower, Tolstov, Called Castle, Earthen Castle, Research, Akshakhankala, Kalajik.

Qizilqum saxrolari o`rab turuvchi Xorazm vohasida odamlar paleolit davridan buyon yashab kelgan.Xorazm so`zini tarjima qilganda “Quyosh mamlakati” degan ma`noni anglatadi. O`z vaqtida bu hududga tarixchilar, yozuvchilar tomonidan turli nomlar berilgan.Xususan arablar istilosini davrida bu o`lkaga “Ming qal`a o`lkasi”, keyinchalik, “Markaziy Osiyo Misiri” nomlari berilishi qolaversa, Beruniy tomonidan ham Xorazm buyuk davlat bo`lganligi va unda o`sha vaqtida 300 dan ortiq shahar bo`lganligi haqida ma`lumotlar keltirib o`tilgan.Bu shaharlar va qal`alar xarobalari hozirgi kunga qadar saqlangan bo`lib, ularda arxeologik qazishma ishlari olib borilishi natijasida to`plangan ma`lumotlar tarixchi olimlar ma`lumotlarini isbotlab berdi. Xususan Xorazm vohasida, Qoraqalpog`iston Respublikasi hududlarida 1937-yildan to 1970-yillargacha professor S.P.Tolstov rahbarligidagi “Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasi” ish olib bordi[1] .

Amudaryoning o`ng sohilida joylashgan To`rtko`l tumani hududidan qum barxanlari ostida ko`milib qolgan o`nlab qadimgi qasrlar,qa`lalar topib o`rganildi. Bu qal`alar xarobalaridan topilgan arxeologik yodgorliklarni tadqiq qilib,olimlar miloddan avvalgi 6-2-mingyillikkarda yashagan ajdodlarimiz Kaltaminor, Suvyorg`on,

Tozabog`yop, Amirobod deb nomlangan madaniyatlarni yaratganlar degan xulosaga keladilar. S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm bo`ylab o`tkazilgan arxeologik izlanishlar natijasida Tuproqqal`a, Guldursunqal`a, Pilqal`a, Qo`rg`oncha qal`a, Ayozqal`a, Jonbosqal`a, Qo`yqirilgan qal`a, Govurqal`a, Bozorqal`a kabi yuzlab qadimiy shaharlar topildiki, ulardagagi memorchilik, haykaltaroshlik san`ati beqiyos rivojlanganidan dalolat beradi. Shunday qal`alardan eng qiziqarli va yaxshi o`rganilgan yodgorligi Qo`yqirilganqal`a hisoblanadi. U aylana shaklda bo`lib aylanasi 86 metr, qalinligi 5 metr devor bilan o`rab olingan, 9 ta minoraga ega. S.P.Tolstov fikricha bu yodgorlik sayyoralarini kuzatadigan joy bo`lgan[2].

Qolaversa Xorazm vohasida qal`alarning qurilishi to`rtburchak shaklda va ko`p hollarda 2 qatorlik mudofa devorlari bilan o`rab olinganligini ko`rishimiz mumkin. Qurilishda mudofa tizimlariga ham alohida etibor qaratilgan, xandaklar va burchlar orqali mudofa tizimi kuchaytirilgan. Bunday shaklni o`zida mujassamlashtirgan qal`alardan biri Tuproqqal`a hisoblanadi. Bu qal`a Ellikqal`a tumanida joylashgan. Uning maydoni 17,5 ga maydonga ega bo`lib shimoliy -g`arbiy qismida saroy joylashgan. Yodgorlik 1935-1940, 1946-1950, 1965-1967 yillarda arxealogik jihatdan tekshirilgan.. Dastlab qadimgi xorazmning poytaxti hisoblangan Tuproqqal`aning Avstraliya -Qoraqalpog`iston xalqaro arxealogik ekspeditsiyasi a`zosi professor V.N.Yagoden, Sidney universiteti professori Aleson Betts va Svend Xelmslar hamkorlikda olib borgan ilmiy tadqiqotlari Tuproqqal`a shohlarning dam olish qarorgohi bo`lganligini ko`rsatdi[3].

O`rganishlar natijasiga ko`ra Tuproqqal`adan 13-14 km janubi -sharqda joylashgan Oqshahonqal`a shahristoni hammaning etiborini tortadi. Ya`ni u Xorazmning eng yirik qal`alaridan biri va mustahkam harbiy istehkomlarga egaligi,, undan Xorazm shohlaridan birining qarorgohi ,qolaversa yozma manbalarda ham poytaxt joylashgan hudud ayni uning o`rniga mos kelishi, undan yirik diniy inshootlarning aniqlanishi kabi faktlar uning Xorazmning dastlabki poytaxti bo`lganligini tasdiqlaydi. Tadqiqotchilardan E.E.Nerazik ham, Xorazmning ilk o`rta asrlarga oid shaharlarini o`rganib, Oqshaxonqal`a qaysidir davrda qadimgi Xorazmning poytaxti bo`lgan degan xulosaga keladi.

O`z navbatida qal`alar karvon yo`llarida ham barpo etilgan. Bunday qal`alar sirasiga Xorazm viloyatining Bog`ot tumanida joylashgan paxsadevor memoriy yodgorligi kiradi. “Katta Qalajiq” qal`asi “Kichik Qalajiq” qal`asidan 1.5 km janubda joylashgan. “Kichik Qalajiq” qal`asining umumiy maydoni 2ga ni tashkil etgan. Xorazm vohasi ikki buyuk sahro orasida joylashganligi sababli, qal`alar qum ustiga qurilgan. Qalajiq qal`asi 7-9 metr balandlikdagi qum ustiga qurilgan. Bugungi kunda bizgacha saqlanib turgan Qalajiq qal`asi devorlarining ko`rinishi notog`ri to`rt burchak shaklida, qal`a sharqdan g`arbga qarab cho`zilgan. Ushbu qal`alarda hozirgi kunda ham o`rganish ishlari olib borilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ulkan tariximizga e`tibor kuchaytirildi va yangi turistik zonalar, ochiq osmon ostidagi muzeylar barpo etila boshlandi. Bunday tarixiy inshoatlarimiz bizning ulkan tariximiz va jaxon tarixida o`z o`rniga ega davlat bo`lganimizning yaqqol dalillaridir. Biz bu tariximizda faxrlanishimiz, uni asrab avaylashimiz, kelasi avlodga meros qilib qoldirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Матниёзов М, Олламов Я. Хоразм давлатчилик тарихи. – Урганч 2009
2. Ходжаниёзов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари - Т.: Ўзбекистон, 2007
3. Гулямов Я. Памятники города Хивы - Т. 1941
4. Дурдиева Г. Қадимий Хоразм пахсадевор меморий ёдгорликлари – Хива, 2017